MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI

Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich

NamDTU Menejment kafedrası DSc, professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida daromadlar taqsimotida yuzaga kelgan strukturaviy o'zgarishlar, mulkiy tabaqalanish va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik masalalari tahlil qilinadi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi, narxlar liberallashtirish, mehnat bozorining erkinlashuvi va norasmiy sektorning kengayishi daromadlar tafovutining chuqurlashuviga olib kelgani ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqotda kvintillar bo'yicha daromadlar taqsimoti statistik ma'lumotlar yordamida baholanib, Hermite spline interpolatsiyasiga asoslangan uslubiy yondashuv qo'llaniladi. Olingan natijalar pastki kvintillarda daromad ulushi nisbatan oshgan bo'lsada, o'rta sinf qisqarayotganini ko'rsatadi. Maqola yakunida daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: daromadlar taqsimoti, bozor iqtisodiyoti, tengsizlik, kvintil tahlili, norasmiy sektor, o'rta sinf, transformatsiya iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the structural changes in income distribution, property stratification and socio-economic inequality that occurred in the Republic of Uzbekistan during the transition to a market economy. It is highlighted on the basis of scientific sources that the crisis of the administrative-command system, price liberalization, labor market liberalization and the expansion of the informal sector have led to a deepening of income inequality. The study evaluates the income distribution by quintiles using statistical data and uses a methodological approach based on Hermite spline interpolation. The results show that although the income share in the lower quintiles has relatively increased, the middle class is shrinking. At the end of the article, economic and socio-political proposals are given aimed at reducing income inequality.

Key words: income distribution, market economy, inequality, quintile analysis, informal sector, middle class, transformation economy.

Аннотация. В статье анализируются структурные изменения в распределении доходов, имущественном расслоении и социально-экономическом неравенстве, произошедшие в Республике Узбекистан в период перехода к рыночной экономике. На основе научных источников подчеркивается, что кризис административно-командной системы, либерализация цен, либерализация рынка труда и расширение неформального сектора привели к углублению неравенства доходов. В исследовании оценивается распределение доходов по квинтилям с использованием статистических данных и методологического подхода, основанного на интерполяции сплайнов Эрмита. Результаты показывают, что, несмотря на относительное увеличение доли доходов в нижних квинтилях, средний класс сокращается. В конце статьи даны экономические и социально-политические предложения, направленные на снижение неравенства доходов.

Ключевые слова: распределение доходов, рыночная экономика, неравенство, квинтильный анализ, неформальный сектор, средний класс, трансформационная экономика.

KIRISH

Buyruqbozlik-ma'muriy boshqaruv tizimining inqirozga uchrashi O'zbekiston jamiyatining iqtisodiy tuzilmasida tub o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Markazlashgan rejalashtirishdan bozor mexanizmlariga o'tish jarayoni real daromadlarning qisqarishi, aholining keng qatlamlari turmush darajasining pasayishi, mulkiy tabaqalanishning kuchayishi kabi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi.



Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tgan hech bir mamlakat daromadlar taqsimotida keskin o'zgarishlar sodir bo'lishidan butkul qochib qutula olmagan.

O'zbekiston Respublikasida ham bozor islohotlari aholining turli ijtimoiy guruhlariga o'rtasidagi daromadlar nisbatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida daromadlar tabaqalanishining ortishi tabiiy jarayon bo'lib, u mehnat unumdorligi va daromad o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining tiklanishiga xizmat qiladi. Aynan shunday sharoitdagina mehnat bozorida zarur strukturaviy siljishlar yuz beradi, xodimlar yuqori samarali ish o'rinlariga o'tadi va yangi kasb va malakalarni egallashga intiladi.

Biroq O'zbekistonda daromadlar tabaqalanish jarayoni ayrim davrlarda yetarli darajada nazorat qilinmaganligi sababli qutblanish darajasi oshdi. Ish haqi tafovutining kengayishi, ishsizlikning ortishi, noformal bandlikning yuqori ulushi, ish haqi to'lovlarining kechikishi kabi omillar daromadlar o'rtasidagi farqning keskinlashuviga olib keldi. Aholining ma'lum qismi esa rasmiy statistikada aks etmaydigan yashirin iqtisodiyotdan daromad olishda davom etmoqda, bu esa daromadlar taqsimoti bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchligini pasaytiradi.

Aholi daromadlarining taqsimlanishini tahlil qilishda odatda ikkita asosiy yondashuv qo'llaniladi: ishlab chiqarish omillari bo'yicha (funktional taqsimlash) va uy xo'jaliklari bo'yicha taqsimlash. O'zbekistonda daromadlarning funksional taqsimlanishini baholash uchun ikki asosiy ma'lumot manbasi mavjud. Birinchisi — "Aholining pul daromadlari va xarajatlari balans", u rasmiy sektor doirasida shakllangan daromadlarni aks ettiradi. Ushbu yondashuvning cheklovi shundaki, u norasmiy sektor va an'anaviy xo'jalik yuritish shakllarida yaratilgan daromadlarni to'liq qamrab olmaydi. Ikkinchi manba — uy xo'jaliklari byudjetining namunaviy so'rovlari bo'lib, ular barcha manbalardan olingan daromadlarni hisobga olish imkonini beradi va aholining real iqtisodiy holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'tish iqtisodiyoti muammolarini o'rgangan yetakchi iqtisodchilar J.Kornai[1], J.Stiglitz[2], M.de Melo & A.Gelb[3] bozor tizimiga o'tish jarayonida daromadlar taqsimotida keskin o'zgarishlar muqarrarligini ta'kidlaydi. Ularning nazariyasiga ko'ra, ma'muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o'tish resurslarning qayta taqsimlanishi, narxlar liberallashtirish, davlat subsidiyalarining qisqarishi va mehnat bozorining erkinlashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu o'zgarishlar aholi guruhlariga o'rtasidagi daromadlar tafovuti kuchayishiga olib keladi.

A.B. Atkinson & F.Bourguignon[4]lar o'z tadqiqotlarida "bozor mexanizmlarining shakllanishi daromadlar o'zgaruvchanligini oshiradi, chunki mehnat unumdorligi, malaka va bozor talabining farqlanishi shaxsiy va oilaviy daromadlar o'rtasida tafovutni kuchaytiradi" — deb ta'kidlaydilar. Shu nuqtai nazardan, daromadlar tengsizligining o'sishi o'tish iqtisodiyotining tabiiy bosqichi sifatida qaraladi.

Daromadlar darajasi va ularning taqsimoti jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy adolat tamoyillarining amalga oshirish hamda aholining farovonlik darajasini belgilovchi asosiy iqtisodiy indikatorlardan biri hisoblanadi. R.Barro[5] va B.Milanovic[6] tadqiqotlari daromadlar tabaqalanishining yuqori bo'lishi iqtisodiy o'sishga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi: bir tomondan, mehnatga rag'batni kuchaytirishi mumkin, ikkinchi tomondan, ijtimoiy keskinlik va qashshoqlikning chuqurlashishiga olib keladi. Shuningdek, Gini koeffitsienti, Lorens egri chizig'i, Palma koeffitsienti kabi ko'rsatkichlarning qo'llanilishi daromadlar taqsimoti bo'yicha xalqaro taqqoslashlar va ichki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni baholashda muhim metodologik ahamiyatga ega[7].

O'zbekiston bozor islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirgan davlatlar qatoriga kiradi. J.Sachs va W.Woo [8] tomonidan ilgari surilgan "shok terapiyasi"dan farqli ravishda, O'zbekiston iqtisodiyoti evolyutsion va ijtimoiy yo'naltirilgan transformatsiya modelini tanladi. Bu esa daromadlar tengsizligining keskin o'sishining oldini olishga qisman yordam bergan bo'lsa-da, rasmiy va norasmiy sektor daromadlari o'rtasida farqning kuchayishiga olib keldi.

Mahalliy tadqiqotchilardan R.G'aniyev[9], M.Abdukarimov[10], B.Toshmatov[11] O'zbekistonda daromadlar taqsimotiga ta'sir etuvchi bir qator ish haqi bo'yicha differensiallikning ortishi, norasmiy iqtisodiyotning kengligi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish tafovuti, bandlikning to'liq emasligi hamda mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining roli kabi omillarni ajratib ko'rsatadilar.

Xalqaro tajribaga ko'ra [12] World Bank, 2021), bozor iqtisodiyotiga o'tishda daromadlar tengsizligi oshgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash uchun soliq va transferlar tizimini optimallashtirish, bandlikni kengaytirish siyosatini joriy etish, kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirish va raqobat muhitini kuchaytirish kabi choralarni qo'llagan[13]. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, daromadlar taqsimotidagi nomutanosiblikni qisqartirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik bazasi iqtisodiy nazariya, ijtimoiy-iqtisodiy statistik tahlil, o'tish iqtisodiyoti kontseptsialari, daromadlar tengsizligi nazariyalari hamda xalqaro va milliy empirik tadqiqotlarning ilmiy



yondashuvlariga tayanadi. Kornai, Stiglitz, Atkinson, Milanovich kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion iqtisodiyot nazariyalari aholi daromadlarining o'zgarishini izohlashda konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil uslubi tanlanadi, chunki daromadlar taqsimoti iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va institutsional omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri o'zaro ta'siri orqali shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi daromadlari taqsimotidagi tengsizlik darajasini o'lchashda, xususan, Gini koeffitsientini hisoblash odatda uy xo'jaliklari byudjeti kuzatuvlari ma'lumotlariga tayanadi. Biroq ushbu ma'lumotlar to'liq mukammal emasligi sababli, ular tengsizlikni aniqlashtirilgan holda baholash imkonini beradi, xolos. Uy xo'jaliklari daromadlari odatda bir xil "qadam"ga ega bo'lgan daromad diapazonlariga guruhlab berilishi, amalda esa ushbu guruhlar ichida daromadlar ulushining keskin farqlanishi natijasida tengsizlikni aniq baholash murakkablashadi.

Shu bois tadqiqotda ko'plab mamlakatlarda qo'llaniladigan uslub – daromadlarni desil (o'nlik) guruhlariga ajratish tamoyiliga asoslangan yondashuv qo'llandi (jadvalda esa kvintil taqsimoti keltirilgan). Ushbu guruhlash daromadlar tuzilmasidagi tafovutlarni yanada aniqlik bilan ko'rsatishga yordam beradi.

Olingan natijalar boshqa tadqiqotchilar — jumladan, professor A. Revenko tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlardan qisman farq qilishi mumkin. Bunga sabab sifatida biz daromadlar taqsimotini silliqashtirishda Hermite spline interpolatsiya usulidan foydalanganimizni ta'kidlash mumkin. Mazkur yondashuv chiziqli interpolatsiyaga qaraganda real taqsimot shaklini yanada to'g'riroq aks ettiradi, deb hisoblaymiz.

Shunga qaramay, o'tkazilgan hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi misolida iqtisodiyotining transformatsiyasi sharoitida aholi daromadlarining tabaqalanishini o'rgangan boshqa olimlarning natijalari bilan umumiy tendensiyalar bo'yicha mos keladi. Bu esa tanlangan metodikaning amaliy jihatdan ishonchligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasida 2020–2024 yillar oralig'ida aholining daromadlari kvintillar bo'yicha qanday taqsimlanganini ilmiy asosda baholashga harakat qilamiz. Quyida keltirilgan 1-jadvaldagi ma'lumotlar daromadlarning eng past va eng yuqori qatlamlari o'rtasidagi nisbatni, ijtimoiy siyosat va iqtisodiy barqarorlikning ahamiyatini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida kvintillar bo'yicha aholi daromadlarini taqsimoti (%)

Kvintil	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
0-20%	38.4	37.6	39.5	39.2	39.2	0,8
20-40%	22.6	23.0	22.0	22.8	22.7	0,1
40-60%	17.2	17.5	16.8	16.9	16.9	-0,3
60-80%	13.3	13.4	13.1	12.8	12.9	-0,4
80-100%	8.5	8.5	8.6	8.3	8.3	-0,2

Uy xo'jaliklari daromadlarining kvintillar bo'yicha taqsimoti aholining turli guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni aniqlashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 2020–2024 yillar davomida O'zbekistonda daromadlar kvintillar bo'yicha taqsimotida sezilarli struktura o'zgarishlari kuzatilgan.

2020 yilda 0–20% aholi daromadlarining umumiy ulushidan 38,4%ga teng bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 0,8 p.p.ga o'sish bilan 39,2%ga yetgan. Pastki kvintil ulushining oshgani aholining eng past daromadli qatlami bo'yicha daromadlarning nisbiy yaxshilanganini bildiradi. Bu o'rta va past daromadli oilalarga qaratilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar, pensiyalar va minimal ish haqi o'sishining natijasi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, pastki kvintilda norasmiy bandlik keng tarqalganligi sababli real daromadlar rasmiy statistikadagi ko'rsatkichlardan ko'proq bo'lishi ehtimoli mavjud. Bu tendensiya ijobiy bo'lsa-da, daromadlar umumiy taqsimotidagi yuqori konsentratsiya pastki qatlamda aholi bo'linmasining yirik qismi kambag'allik xavfi ostida qolayotganini ko'rsatadi.

20–40% kvintil ulushining barqarorlashuvi kuzatilib 2020 yilda 22,6% bo'lgan ko'rsatkich 2024 yildabasis yilga nisbatan deyarli o'zgarmagan (+0,1 p.p) holda 22,7%ni tashkil etib. Ushbu qatlam "pastdan yuqoriga ko'tariluvchi o'rta sinf" sifatida qaraladi. Ulushning sezilarli o'zgarmasligi iqtisodiy siyosat ta'sirida o'rta qatlamning kengayish sur'ati juda sust ekanligini ko'rsatadi. O'rtacha daromadlar barqaror o'sishining yetarli emasligi aholi iste'moli tarkibidagi cheklovlarni saqlab qoladi.



40–60% kvintil ulushining qisqarishi 2020 yildagi 17,2 %dan 2024 yilda 0,3 p.p.ga kamayib 16,9 %ga teng bo'lgan. Mazkur guruh “klassik o'rta sinf” sifatida qaraladi; ulushning pasayishi o'rta sinfning bosqichma-bosqich qisqarish tendensiyasini aks ettiradi. O'rta sinf daromadlarining pasayishi iqtisodiy barqarorlik va ichki talabning uzluksiz o'sishi uchun xavf tug'diradi. Inflyatsiya sur'atlarining tezlashuvi ham ushbu guruhning xarid qobiliyatini zaiflashtirgan bo'lishi mumkin.

60–80% kvintil ulushining qisqarishi 2020 yilda 13,3% ulush 2024 yilga kelib 0,4 p.p.ga kamayib 12,9%ga tushgan. Yuqori-o'rta daromadli qatlamning qisqarishi boylikning yuqori qatlamlarda ko'proq to'planayotganidan dalolat beradi. Bu yuqori daromadga ega guruhlarda aktivlar, tadbirkorlik daromatlari va kapitaldan olinadigan daromadlarning tez o'sishi bilan izohlanadi. Ko'rsatkichning pasayishi mulkiy tabaqalanishni kuchaytiradi.

Eng yuqori kvintil (80–100%) ulushining biroz kamayishi 2020 yildagi 8,5% ko'rsatkich 2024 yilda 0,2 p.p.ga kamayib 8,3 %ni tashkil etgan. Yuqori kvintil ulushining kamayishi tengsizlikning yumshayotganidan dalolat berishi mumkin, ammo pasayish juda kichik bo'lgani uchun bu barqaror ijobiy trend sifatida qaralishi qiyin. Bundan tashqari, yuqori daromadli guruhda yashirin daromadlar ulushi ko'proq bo'lishi ehtimoli mavjud, bu statistik ko'rsatkichlarni past ko'rsatishga olib keladi. Tadbirkorlik subyektlarining daromadlarni rasmiylashtirishdan cheklanishi ham ulushning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirish daromadlar taqsimotida pastki kvintillarning ulushini oshishi, qisqa muddatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash siyosati samaradorligini bildiradi. O'rta sinf qisqarib borishi 40–60% va 60–80% guruhlarining ulushi pasaygani iqtisodiy barqaror o'sish uchun xavotirli holatni ifoda etadi. Tengsizlikning umumiy darajasi keskin o'zgarmagan, ammo strukturaviy siljishlarasosan pastki qatlamlarda to'planayotgan bo'lsa-da, yuqori qatlamlarning yashirin daromadlari statistikada to'liq aks etmasligi ehtimoli yuqori. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, Respublikada kambag'allikka qarshi dasturlar qisqa muddatda natija berayotgan bo'lsada, biroq iqtisodiy differensiallikning chuqur ildizlari saqlanib qolmoqda.

Daromadlar tabaqalanishining o'sishi va nisbatan past daromadli odamlar soni qashshoqlik ko'lamining sezilarli darajada kengayishiga olib keladi. Iqtisodiy tanazzul sharoitida qashshoqlikning o'sishi real daromadlarning pasayishi va daromadlar o'zgarishining o'sishi avvalgi o'rta daromadga ega bo'lgan tobora ko'proq oilalarning qashshoqlikka o'tishiga olib kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar qisman ichki iqtisodiyot tuzilmasidagi chuqur o'zgarishlarning natijasidir - bozor uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lmagan past malakali ishchilar qayta tayyorlash, yanada intensiv ish uchun rag'batlantiriladi, ammo hamma ham ulardan qanday foydalanishni bilmaydi. Ishsizlikning o'sishi va qashshoqlik darajasi hech bo'lmaganda uning dastlabki bosqichida iqtisodiyotning bozor transformatsiyasining muqarrar natijasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlarining shakllanishi daromadlar taqsimotida tabiiy ravishda muayyan darajadagi tengsizlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida aholining eng past daromadli kvintilida daromad ulushi biroz oshgan bo'lsa-da, o'rta sinfning qisqarishi va yuqori daromadli guruhlarining barqaror pozitsiyasini saqlab qolishi strukturaviy tengsizlikning davom etayotganidan dalolat beradi. Norasmiy bandlikning yuqori ulushi, mehnat bozorida malakalar mos kelmasligi, hududiy iqtisodiy tafovutlarning saqlanishi va yashirin daromadlar statistik ko'rsatkichlarga to'liq aks etmasligi tengsizlik ko'lamini yanada murakkablashtirmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kambag'allikka qarshi dasturlar qisqa muddatda sezilarli samaralar bergan bo'lsa-da, iqtisodiy differensiallikning chuqur ildizlari hali ham saqlanib qolmoqda. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- mehnat bozorini modernizatsiya qilish – malaka oshirish, qayta tayyorlash va yangi kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish orqali o'rta sinfni tiklash va kengaytirish zarur;
- norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish – soliq ma'murchiligini soddalashtirish, mikrotadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali daromadlarning rasmiy sektor orqali shakllanishi rag'batlantirilishi lozim;
- ijtimoiy transferlar tizimini optimallashtirish – past daromadli aholi qatlamiga qaratilgan manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish, ko'rsatkichlar monitoringini kuchaytirish maqsadga muvofiq;
- hududiy iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlash – infratuzilma loyihalari, sanoat zonolari va qishloq xo'jaligi klasterlarini kengaytirish orqali mintaqalar o'rtasidagi daromad tafovutini kamaytirish;
- tadbirkorlik va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash – kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish orqali yuqori daromad manbalariga bo'lgan kirish imkoniyatlarini oshirish. Mazkur takliflar daromadlar tengsizligini yumshatish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda o'rta sinfning qayta shakllanishiga xizmat qilishi kutiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Kornai, J. (1992). The socialist system: The political economy of communism. Princeton University Press.
2. Stiglitz, J. (1999). Whither reform? Ten years of the transition. World Bank Annual Conference on Development Economics.
3. de Melo, M., & Gelb, A. (1996). Transition to date: A comparative overview. World Bank Economic Review, 10(3), 397–424.
4. Atkinson, A. B., & Bourguignon, F. (2015). Handbook of income distribution (Vol. 2). Elsevier.
5. Barro, R. (2000). Inequality and growth in a panel of countries. Journal of Economic Growth, 5(1), 5–32.
6. Milanovic, B. (1998). Income, inequality, and poverty during the transition. World Bank.
7. Cowell, F. A. (2011). Measuring inequality. Oxford University Press.
8. Sachs, J., & Woo, W. (1994). Structural factors in the economic reforms of China, Eastern Europe, and the former Soviet Union. Economic Policy, 9(18), 101–145.
9. G'aniyev, R. (2010). Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston.
10. Abdukarimov, M. (2018). O'zbekiston iqtisodiyotida daromadlar taqsimoti muammolari. Iqtisodiyot va ta'lim, 3(12), 45–53.
11. Toshmatov, B. (2021). Aholi daromadlarining ijtimoiy tafovutlari va ularni yumshatish yo'llari. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2(4), 29–37.
12. OECD. (2018). A broken social elevator? How to promote social mobility. OECD Publishing.
13. World Bank. (2021). Poverty and shared prosperity report. Washington, DC.
14. Ревенко А. Бідні верстви населення в Україні (за даними дослідження сімейних бюджетів Держкомстатом України)// Україна: аспекти праці. – 1997, № 7. – С. 15.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
